

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 336.713(575.1):330.15

QUDRATOV INOMJON NEMAT O‘G‘LI

**TIJORAT BANKLARIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI
JADALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

08.00.07- Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy
darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Iqtisod fanlari doktori,
professor Karlibayeva R. X.

TOSHKENT – 2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I bob TIJORAT BANKLARIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1-§. Tijorat banklarida “yashil” moliyaning mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari	12
1.2-§. Tijorat banklarida “yashil” moliyalashtirishni amalga oshirishning me’yoriy-huquqiy jihatlari.....	27
1.3-§. Tijorat banklarida “yashil” moliyalashtirishning xorijiy tajribasi.....	41
Birinchi bob bo’yicha xulosa.....	55
II bob TIJORAT BANKLARIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	57
2.1-§. O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida “yashil” moliyalashtirish ko‘rsatkichlari tahlili.....	57
2.2-§. Tijorat banklarida “yashil” moliyalashtirish samaradorligini baholash.	72
2.3-§. Tijorat banklari “yashil” kreditlar risklarini tahlil qilishda modellashtirish va prognozlash.....	93
Ikkinchi bob bo’yicha xulosa.....	109
III bob TIJORATAT BANKLARIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI JADALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	111
3.1-§. Tijorat banklarida “yashil” moliyalashtirish mexanizmlari va moliyaviy instrumentlarini kengaytirish imkoniyatlari.....	111
3.2-§. “Yashil” moliyalashtirishni rivojlantirishda bank sektori uchun institutsional va huquqiy muhitni takomillashtirish istiqbollari.....	125
Uchunchi bob bo’yicha xulosa	140
XULOSA	142
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	145

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati. Jahon moliya tizimida “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi kundan-kunga muhim ahamiyat kasb etib, moliyaviy oqimlar va investitsion siyosatning markaziy yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar va barqaror rivojlanish maqsadlari moliya tizimida faqatgina iqtisodiy foyda keltiribgina qolmay, endilikda ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni ham talab etmoqda. Buning natijasida, moliya institutlari, investorlar, reguliatorlar va suveren hukumatlar o‘z kapitalini hamda moliyaviy resurslarni “yashil” iqtisodiyotga yo‘naltirish strategiyalarini ishlab chiqib ularni amaliyotda qo‘llashni boshlab yubordi.

Jahonda tijorat banklari “yashil” moliyalashtirishni keng joriy etish orqali barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynamoqda. Barqaror moliyalashtirishning muhim bo‘g‘ini sifatida “yashil” kreditlar, “yashil” obligatsiyalar, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirish kabi instrumentlar orqali banklar o‘z kredit portfellarini ekologik yo‘nalishga burmoqda. Masalan, Xitoyda tijorat banklari tomonidan ajratilgan yashil kreditlar hajmi 2023- yilda 4,24 trillion AQSh doll.ga yetgan bo‘lib, yillik o‘sish 36,5 %ni tashkil etgan. Yevropa Ittifoqida esa ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari asosida kreditlash tizimi shakllantirilgan va “Net-Zero Banking Alliance” orqali banklar uglerod neytrallikka o‘tish bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmoqda.

Jahonda tijorat banklari tomonidan “yashil” moliyalashtirishni keng joriy etish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda. Yevropa Ittifoqida esa “yashil” kreditlashda BNP Paribas, ING, Deutsche Bank kabi banklar yetakchi rolni bajarmoqda. ING Bank 2023- yilda 20 milliard yeuro miqdorida ESG kredit ajratdi. 2023- yil yakuniga kelib, jahon miqyosidagi yashil moliyalashtirish hajmi 1,6 trillion AQSh doll.ga yetdi, shundan 620 milliard AQSh doll. qismi tijorat banklari orqali amalga oshirildi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 30- yanvardagi PF-16-sonli ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-sonli “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-sonli “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-soni “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Yashil” iqtisodiyotni takomillashtirish, “yashil” moliya instrumentlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy qilish borasida “yashil” iqtisodiyot vositalarida foydalanishni yo‘lga qo‘yishda xorijiy iqtisodchi olimlardan N.Robins, Z.Yongshen, V.Zang, M.Jun, M.Maykl, A.Fon Gunten, S.Hallagatt, K.F.Nedopil Van, T.Sterner, X.Koriya, M.Karni, N.Stern, R.J.Ekks, D.Lvov, Z.Nin, D.Shenmaker, V.Skhramade, R.Puspitashari,